

## XX ASR BOSHLARIDA XITOIY. SINXAY INQILOBI

**Xolmatov Abdulbosid Abdurashid o'g'li**

*Qo'qon temir yo'l texnikumi tarix fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Maqolada XX asr boshlarida Xitoyda yuz bergan tarixiy jarayonlar, jumladan, Sinxay inqilobining Xitoy tarixida tutgan o'rnini yoritishga harakat qilindi.*

**Kalit so'zlar:** *Sin sulolasi, monarxiya, Sun Yatsen, Tunmenxoy, Uchan, qo'zg'olon, Sinxay inqilobi, Yuan Shikay, respublika, konstitutsiya, prezident.*

**Аннотация:** *В статье предпринята попытка осветить исторические процессы, происходившие в Китае в начале XX века, в том числе роль Синьхайской революции в китайской истории.*

**Ключевые слова:** *династия Синь, монархия, Сунь Ятсен, Тунмэнхой, Учан, восстание, Синхайская революция, Юань Шикай, республика, конституция, президент.*

**Annotation:** *The article tried to shed light on the historical processes that took place in China at the beginning of the 20th century, including the role of the Xinhai Revolution in Chinese history.*

**Key words:** *Qing dynasty, monarchy, Sun Yat-sen, Tunmenkhoy, Wuchang, rebellion, Xinhai revolution, Yuan Shikai, republic, constitution, president.*

XX asrning birinchi o'n yilligi Xitoyda manchjurlar hukmronligining so'nggi davrlari edi deksak to'g'ri bo'ladi. Biroq manchjurlar hukmronligining barham topishi uchun hali oldinda unchalik uzoq bo'lmasa-da, xalqning muttasil, mashaqqatli kurash bosqichi turardi. XX asr boshlariga kelganda Xitoyda ijtimoiy ziddiyatlar keskinlashib, manchjurlarning Sin sulolasi hukmronligi inqirozi yaqqol ko'rinib borayotgan edi. Xalq ommasi orasida manchjurlar boshqaruviga qarshi harakatlar kuchayib bordi.

Aholi soni jihatidan dunyoning eng katta mamlakati o'nlab yillar davomida chet davlatlarning yarim mustamlakasi bo'lib qolayotgan edi. XX asr boshlarida mamlakatning 400 mln aholisidan 90%i savodsiz edi. Uzoq yillar davomida mamlakatni imperatorning bevasi Tsisi (1861-1908) boshqarardi. Urushlar va qo'zg'olonlar tufayli hokimiyatning obro'si juda pasyib ketgandi.<sup>1</sup>

XX asr boshlarida Xitoyda va xitoylik muhojir talabalar yashaydigan qo'shni davlatlarda turli xil ittifoq va tashkilotlar paydo bo'la boshladi. Ular o'z harakat dasturlari e'lon qilingan gazeta-jurnallar chiqarardilar, varaqalar, xitobnomalar tarqatardilar. Xitoy inqilobchilari ichida Sun Yatsen (1866-1925) alohida rol o'ynadi<sup>2</sup>.

Sun Yatsen Janubiy Xitoyning Guandun viloyatida tug'ilgan, Gavay orollarida missionerlik maktabini va Gongkongdagi tibbiyot institutini tugatgan edi.<sup>3</sup> Sun Yatsen 1905-

<sup>1</sup> Shuhrat Ergashev. Jahon tarixi. Yangi davr (1800-1918). – T.: “O'zbekiston” NMIU, 2015. B. 360-361.

<sup>2</sup> A.Xolliev, X.Artiqov. “Jahon tarixi (Yangi davr. Osiyo va Afrika mamlakatlari)”. Ma'ruzalar to'plami. Toshkent - 2014. B. 39.

<sup>3</sup> Shuhrat Ergashev. Jahon tarixi. Yangi davr (1800-1918). – T.: “O'zbekiston” NMIU, 2015. B. 360.

yili asos solgan Tunmenxoy («Ittifoq ligasi») siyosiy partiyasi esa 1911-yilgi inqilobni tayyorlashda katta rol o‘ynadi<sup>4</sup>. Tashkilot Sun Yatsen rahbarligida o‘z dasturini qabul qiladi. Uning dasturida Sin hukumatini ag‘darish, xitoy millati mustaqilligini tiklash va burjua-demokratik respublika tuzish haqida yozilgan edi. Sun Yatsen o‘z g‘oyalarini “uchta xalq prinsiplarida” – millat mustaqilligi, xalq hukmronligi va xalq farovonligini tiklashda umumlashtirgan<sup>5</sup>.

1906-1910-yillardagi inqilobiy o‘shishning asosiy jihati Xitoyda yangicha g‘oyalar va Yevropa ta’sirining o‘sganligi bo‘ldi, bu «avvalgi xitoycha isyonlarning ongli demokratik harakatga aylanishini» muqarrar qilib qo‘ydi. Bu g‘oyalarda 1905-1907-yillardagi rus inqilobining Xitoyning uyg‘onishiga kuchli ta’siri namoyon bo‘ldi. Tunmenxoy Xitoydagi yashirin tashkilot bo‘lsa ham, u son jihatdan ko‘paydi (1906 yili uning a‘zolari 10 ming kishi edi), tashkiliy tomondan mustahkamlandi va faollashdi. Tunmenxoyga shu yillari Xitoyda ko‘plab paydo bo‘lgan mayda burjua tashkilotlari ham qo‘shildi. Yer munosabatlarini tenglashtirishning talab qilinishi Tunmenxoy bayrog‘i ostiga dehqonlarni ham to‘pladi. Bu tashkilotning a‘zolari yangi harbiy qismlarning qo‘shinlari orasida ham muvaffaqiyatli tashviqot olib bordilar, bunday qismlardagi ko‘plab ofitserlar ham inqilob tarafdorlari edilar. Sun Yatsenning jiddiy muvaffaqiyati shunda ediki, u Tunmenxoy tomoniga qadimiy maxfiy va birodarlik jamiyatlarini ham jalb qila oldi, bu esa Xitoy demokratlariga dehqonlar ommasi va shaharning quyi tabaqasi bilan ham keng aloqalar o‘rnatish imkonini berdi. Tunmenxoyning ta’siri ostida maxfiy jamiyatlar Manchjur sulolasini qulatilish va Min sulolasini tiklash shiorlarini Sun Yatsenning uch tamoyilida ifodalangan talablar bilan almashtirdilar.

1906-1910-yillar davomida Tunmenxoy Guandun sohillarida, shuningdek, Xitoyning janubiy rayonlarida Manchjur sulolasiga qarshi o‘nta qo‘zg‘olon tayyorladi va o‘tkazdi. Bu endi fitnachilarning bir-biridan ajratilgan guruhlarining chiqishlari emas edi; ularda Tunmenxoy a‘zolari bilan bir qatorda ishchilar, dehqonlar, yashirin birodarliklar va jamiyatlarning a‘zolari, yangi shakllantirilgan qismlarning askarlari va ofitserlari ham ishtirok etdilar. Bu barcha qo‘zg‘olonlar muvaffaqiyatsizlikka uchragan bo‘lsa-da, ular Manchjur sulolasi ustunlarini zaiflashtirdi, ommani kurash tajribasi bilan qurollantirdi<sup>6</sup>.

Rus-yapon urushidan keyin AQSh Manchjuriyadagi temir yo‘l qurilishiga o‘z kapitalini sarflashga harakat qildi, biroq Yaponiya chor Rossiyasi bilan birgalashib, AQShni siqib chiqardi. Shundan keyin AQSh Angliya, Fransiya va Germaniya bilan birgalashib, Sichuan – Xankou va Kanton – Xankou temir yo‘llari qurilishiga o‘z kapitalini sarflash maqsadida, to‘rt davlat konsorsiumini tuzdi. To‘rt davlatning — Angliya, Amerika Qo‘shma Shtatlari, Fransiya, Germaniyaning bu konsorsiumi 1911-yilning aprelida Sin hukumatiga zayom qarz berdi. Temir yo‘llarni milliylashtirish niqobi ostida hukumat ikkita temir yo‘lni — Sichuan – Xankou va Kanton – Xankou temir yo‘llarini haqiqatda chet ellik imperialistlarga sotib yubordi. Ilgari bu temir yo‘llarni ishlatish huquqi xususiy sahibkorlarga (kapitalistlarga)

<sup>4</sup> Sh. Ergashev, T. Bobomatov. XX asr taqdirlarda aks etgan tarix. – T.: “O‘zbekiston”, 2015. B. 362.

<sup>5</sup> Xitoy tarixi / filologiya fanlari nomzodi, dotsent S.Nosirova va filologiya fanlari nomzodi, dotsent S.Hoshimova ilmiy muharrirligi ostida xitoy va rus tillaridan tarjima – T.: «EXTREMUM PRESS» nashriyoti, 2018. B. 188.

<sup>6</sup> Sh. Ergashev, T. Bobomatov. XX asr taqdirlarda aks etgan tarix. – T.: “O‘zbekiston”, 2015. B.362-363.

berilgan edi. Sichuan, Xubey va Xunan aholisi bu temir yo‘llarning chet ellik imperialistlarga sotilishiga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tardi. Hamma joyda ish tashlash va ommaviy namoyishlar bo‘lib o‘tdi. Ish tashlash va namoyishlarda savdogarlar ham, talabalar ham qatnashdi. Bu namoyishlarda hukumat nomiga yozilgan arznomalar o‘qib berildi. Sichuanda boshlangan kurash keskin tus olib ketdi.

Sichuanda temir yo‘llarni himoya qilish uchun qattiq kurash boshlandi. «Tunmenxoy» bilan bog‘langan adabiy jamiyatlar Uchanda qo‘zg‘olon ko‘tarishga qaror qildi. Biroq qo‘zg‘olon tayyorlovchi maxfiy qo‘mita tarkibi qamoqqa olinganligidan qo‘zg‘olon rejasi va inqilobiy arboblar ro‘yxati dushman qo‘liga tushib qoldi. Shundan keyin yangi armiyaga mansub bo‘lgan inqilobiy harakat tarafdorlari qo‘zg‘olonni ilgari belgilangan muddatdan bir kun ilgari ko‘tarishga qaror qildilar<sup>7</sup>. 1911-yil 10-oktabrda Uchanda qo‘zg‘olon boshlandi va u butun mamlakat uchun signal bo‘ldi. Bu kun Xitoy tarixiga Sinxay inqilobining boshlangan kuni bo‘lib kirdi<sup>8</sup>.

Uchan qo‘zg‘oloni butun mamlakat bo‘ylab inqilobiy ko‘tarinkilikni vujudga keltirdi va Sin hokimiyatiga qarshi ko‘pgina provinsiyalar ham ko‘tarildi. Bir oydan ortiqroq vaqt mobaynida o‘ndan ortiq provinsiyalar o‘zlarining mustaqilligi haqida e‘lon qildilar. Sin hukumatining hukmronligi shiddat bilan yemirilish tomon ketdi. 1911-yil oy taqvimini bo‘yicha Sinxay yili bo‘lgani uchun Sin hukmronligini yemirgan bu inqilobni tarixda “Sinxay inqilobi” deb ataganlar<sup>9</sup>.

Inqilob tez orada janubiy va markaziy Xitoyning hamma provinsiyalarini qamrab oldi va bu yerlarda hokimiyat qo‘zg‘olonchilarga o‘tdi. Mamlakatning sanoati keng taraqqiy qilgan shimolida hokimiyat Sin hukumati qo‘lida qoldi. Bu vaqtda janubda muvaqqat inqilobiy hukumat tuzildi<sup>10</sup>. Mamlakat shimolida hokimiyat katta ta’sir kuchiga ega bo‘lgan general Yuan Shikay qo‘lida to‘plana bordi, u Bosh vazir bo‘ldi<sup>11</sup>.

1911-yil dekabrda Janubning inqilobiy hukumatlari tomonidan chaqirilgan viloyatlar vakillarining syezdida, ko‘p yillik quvg‘indan keyin mamlakatiga qaytib kelgan inqilobning mashhur dohiysi Sun Yatsen Xitoy respublikasining vaqtinchalik prezidenti etib saylandi. Bunga javoban imperialistlar o‘zlarining harbiy tayyorgarliklarini kuchaytirdilar, avvalgidek hujum qilish xavfini soldilar. Yuan Shikay Nankindan tinchlik delegatsiyasini chaqirib oldi va yangi urushga namoyishkorona tayyorlana boshladi. Sun Yatsenga keladigan bo‘lsak, bu oliyjanoblik va qahramonlikka to‘liq bo‘lgan inqilobchi-demokrat anchagina yakkalanib qoldi. Janublik liberal burjuaziya uchun, ayniqsa, Shimoldagi liberallar uchun u juda ham «so‘l» edi. U o‘z partiyasining yordamiga ham umid bog‘lay olmasdi. Bu paytga kelib Tunmenxoy jangovarlik ruhini yuqotdi, liberallar bilan hamkorligi ancha chuqurlashib ketdi

<sup>7</sup> Xitoyning yangi tarixidan ocherklar. – T.: O‘zbekiston SSR Davlat nashriyoti, 1959. B. 59-60.

<sup>8</sup> A.Xolliev, X.Artiqov. “Jahon tarixi (Yangi davr. Osiyo va Afrika mamlakatlari)”. Ma’ruzalar to‘plami. Toshkent - 2014. B. 40.

<sup>9</sup> Xitoy tarixi/ filologiya fanlari nomzodi, dotsent S.Nosirova va filologiya fanlari nomzodi, dotsent S.Hoshimova ilmiy muharrirligi ostida xitoy va rus tillaridan tarjima – T.: «EXTREMUM PRESS» nashriyoti, 2018. B. 188-189.

<sup>10</sup> Haydarali Muhamedov. Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi tarixi (Yangi davr davlati va huquqi). Darslik. Toshkent - 2018. B. 227-228.

<sup>11</sup> A.Xolliev, X.Artiqov. “Jahon tarixi (Yangi davr. Osiyo va Afrika mamlakatlari)”. Ma’ruzalar to‘plami. Toshkent - 2014. B. 40.

va ular bilan aloqalarni uzmoq uchun ularning ta'siridan qutulish endi ancha og'ir edi. Bundan tashqari, Xitoyning ustida imperialistik qurolli mojaro xavfi turardi. Inqilobning asosiy vazifasi respublikani o'rnatishdan iborat deb bilgan Sun Yatsen, Sin sulolasi taxtdan voz kechadigan bo'lsa, prezidentlikni Yuan Shikayga berishga tayyorligini bildirdi. 1912-yilning 12- fevral kuni Sinlarning taxtdan voz kechishi ro'y berdi. Xitoyning imperializm tomonidan mustamlaka qilinishing quroli va feodal reaksiyaning tayanchi bo'lgan Sin imperiyasi quladi. Xitoy respublika bo'ldi. Xitoyning ozodligi dehqon demokratlar bilan liberal burjuaziya ittifoqi tomonidan egallangandi, lekin uyushqoqlikning zaifligi sababli dehqonlar o'zining liberallarga qarshi pozitsiyalarini saqlab qola olmadilar. Hokimiyat tezda ochiqdan-ochiq, reaksiyon lagerga o'tib ketgan Yuan Shikayga o'tdi<sup>12</sup>.

1912-yil 10-martda o'zini Milliy Majlis deb e'lon qilgan provinsiyalar vakillarining yig'ilishi Sun Yat Sen tomonidan taklif qilingan respublikaning Muvaqqat Konstitutsiyasini qabul qildi. Xitoy an'anaviy davlatchiligi uchun bu Konstitutsiya progressiv ahamiyatga ega edi. Konstitutsiyada oliy qonun chiqarish hokimiyati sifatida ikki palatali parlament nazarda tutildi. Sun Yat Sen fikricha, Konstitutsiya Sin hukumatiga boshchilik qilgan general Yuan Shikay diktaturasini cheklashi kerak edi. Lekin bu o'zini oqlamadi.

1912-yil dekabr – 1913-yil fevralda bo'lib o'tgan parlamentga saylovlarda “Birlashgan ittifoq” ning qayta tashkil qilinishi natijasida 1912-yilda tuzilgan Gomindan (Milliy partiya) ko'p o'rin oldi. Gomindan Xitoyning burjua-pomeshchiklar chaqirish va parlament chaqirish yo'li bilan reaksiyaning hujumiga xalaqit berishga urindi.

Yuan Shikay ichki va tashqi siyosatning muhim masalalari bo'yicha parlament fikrini rad etdi. U o'zini imperialistik davlatlar qo'llab-quvvatlashini ta'minlashga harakat qilib, parlamentning irodasiga qarama-qarshi o'laroq, 1913-yilning aprelida ular bilan yangi asoratli qarz to'g'risida shartnoma tuzdi. Shunda Sun Yat Sen xalqni va janubiy provinsiyalar qo'shinini Yuan Shikay diktaturasini ag'darib tashlashga chaqirdi. Yuan Shikayga qarshi qo'zg'olon o'sha yilning o'zida boshlandi, lekin mag'lubiyatga uchradi. Sun Yat Sen yana mamlakatni tark etishga majbur bo'ldi.

Qo'zg'olon bostirilganidan keyin Yuan Shikay o'z shaxsiy hokimiyatini mustahkamlash uchun qator choralar qabul qildi. U mamlakatning doimiy prezidenti sifatida o'z nomzodini tahdid va sotib olishlar yo'li bilan parlament orqali o'tkazishga muvaffaq bo'ldi. Keyin esa parlament tarqatib yuborildi. Muvaqqat Konstitutsiya e'lon qilinib, unda prezidentga diktatorlik vakolatlari berildi. Ministrlar kabineti endi parlament oldida emas, prezident oldida javobgar bo'lib qoldi<sup>13</sup>.

Xulosa qilib aytganda, Sinxay inqilobi tufayli Xitoyda salkam uch yuz yil hukmronlik qilgan manchjurlarning Sin sulolasi hukmronligi tugatildi va monarxiya o'rnida Xitoyda respublika ta'sis etildi. Shunday qilib, Sinxay inqilobi feodal munosabatlar ustidan to'la g'alaba qozona olmagan, chet davlatlarga qaramlikni tugatmagan bo'lsa-da, qoloqlik va qaramlikni bosh sababchisi bo'lib kelayotgan Sinlar monarxiyasini tugatib, respublikani e'lon qilishi bilan Xitoyda tarixiy taraqqiyot yo'lida yangi bosqichni boshlab bergan edi.

<sup>12</sup> Sh. Ergashev, T. Bobomatov. XX asr taqdirlarda aks etgan tarix. – T.: “O'zbekiston”, 2015. B. 363.

<sup>13</sup> Haydarali Muhamedov. Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi tarixi (Yangi davr davlati va huquqi). Darslik. Toshkent - 2018. B.228.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. A.Xolliev, X.Artiqov. “Jahon tarixi (Yangi davr. Osiyo va Afrika mamlakatlari)”. Ma’ruzalar to‘plami. Toshkent - 2014.
2. Haydarali Muhamedov. Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi tarixi (Yangi davr davlati va huquqi). Darslik. Toshkent - 2018.
3. Xitoy tarixi / filologiya fanlari nomzodi, dotsent S.Nosirova va filologiya fanlari nomzodi, dotsent S.Hoshimova ilmiy muharrirligi ostida xitoy va rus tillaridan tarjima – T.: «EXTREMUM PRESS» nashriyoti, 2018.
4. Xitoyning yangi tarixidan ocherklar. – T.: O‘zbekiston SSR Davlat nashriyoti, 1959.
5. Shuhrat Ergashev. Jahon tarixi. Yangi davr (1800-1918). – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2015.
6. Sh. Ergashev, T. Bobomatov. XX asr taqdirlarda aks etgan tarix. – T.: “O‘zbekiston”, 2015.